



Muhammad Yusuf ijodini talqini

Xudayberganova Yulduz Baxtiyarovna

Toshkent viloyati Toshkent tumani
Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga
qarashli 1-sonli umumiy o'rta ta'lim
maktabi Ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqining sevimli shoiri Muhammad Yusufning hayoti va ijod yo'li, shoir ijodidagi rang baranglik, soddalik va xalqchilik jihatlari tasniflanadi. Muhammad Yusuf ijodida Vatan mavzusiga alohida urg'u berilgan bo'lib, maqolada shoir ijodida Vatan siymosiga berilgan ta'rif, yoshlarni Vatanparvarlik ruhida tadbiyalashda shoir ijod namunalarining o'рни haqida ham fikr bildiriladi. Qolaversa shoir ijodi haqida zamonamiz adiblari va yetuk shaxslarining fikrlari ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Vatan, ijod, xalqparvarlik, yuksak iste'dod, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY), “Muhammed Yusuf secmeler” tashbeh, tazod, talmeh, “Betakror shoir”

Muhammad Yusuf noyob iste'dot egasi, odamlarni
mehribon, sofdil, mard va kamtarin inson edi...

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti

I.A.Karimov



Xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf 1954-yil 26- aprel kuni Andijon viloyati Marhamat tumani Qovunchi qishlog'ida tavallud topgan. U Yusuf ota va Enaxon ayalarning ikki o'g'il, uch qiz farzandlari ichida erka dilbandi bo'lib ulg'aygan. Noyob iste'dod sohibi bo'lmish Muhammad Yusuf bolalik chog'larida sho'x yigit bo'lib, ko'p narsalarga qiziqqan, yuragida muhabbat, tomirlarida oqayotgan qonning jo'shqinligi uning she'rlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Muhammad Yusuf bolalikdan ziyrak, juda qiziquvchan bo'lganligi bois ko'p kitoblarni sevib o'qigan va savollarga javob izlagan. Shu bilan birgalikda Muhammad Yusuf ochiqko'ngil va hayolparast bola bo'lib, shariyat va adabiyotga mehri juda baland bo'lgan. Bunday mehrni uning qalbida buvijonisi Tursunxon ena uyg'otgan edi. Muhammad Yusuf garchi oddiy dehqon oilasida dunyoga kelgan bo'lsada, o'qish va ishlarida katta muvaffaqiyatlarga erishadi. 1973-yili o'rta maktabni a'lo baholarga tugatib, Reshetov nomidagi Rus tili va adabiyoti Institutiga o'qishga kiradi. 1978-80 — yillar oralig'ida harbiy xizmatni o'taydi va bu davrlar shoir uchun mashaqqatli va murakkab tajribali davr bo'ladi, shoir ko'nglida „Ona vatan“ tuyg'usi yanada alanganadi. Shu tariqa shoirning keng qamrovli ijod faoliyati boshlanadi.

Hayotiylik Muhammad Yusuf she'riyatining muhim xususiyatidir. Shoir aksariyat she'rlarida hayotiy voqea-hodisalar, holatlar tasviri zamirida o'zining asosiy fikrlarini ochishga harakat qiladi. Shoirning poetik tafakkuri g'oyat keng ekanligini ta'kidlash zarur. Negaki, hayotda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga teran nigoh bilan qarashga, ularning tub mohiyatini anglashga intiladi. “Yozuvchi badiiy talantining o'lchovi” (Ch.Aytmatov) bo'lgan badiiy mahorat shoirning o'zida millatning ruhini ifodalagan har bir satrida yaqqol namoyon bo'ladi. Muhammad Yusuf ijodida vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usi yuksak darajada aks etgan. Muhammad Yusuf vatan madhini “ko'p va xo'p” yozgan desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Shoirning o'zi ham yosh shoirlar bilan bo'lgan suhbatlarining birida vatan haqida yaxshi va ko'p yozmagan shoir haqiqiy shoir bo'la olmasligi haqidagi



fikrlarni aytib o'tadi. O'zi esa vatanparvarlik lirikasi bilan buning namunasini ko'rsata oldi:

Ko'rdim suluvlarning eng faranglarin,

Yo xudbinman yo bir sodda kasman men:

Parijning eng go'zal restoranlarin,

Bitta tandiringga alishmasman men

Ko'rinadiki, Muhammad Yusufda ham so'z tanlash va qo'llash mahorati yuksak darajada. Zero, Izzat Sulton ta'kidlaganidek: “Yozuvchining mahorati aytilmoqchi bo'lgan fikr, tasvirlanayotgan predmet va ruhiy holatni eng aniq va yorqin ifoda eta oladigan so'z va iboralarni topa bilishdan iboratdir”

Shoir Ota makonidagi har bir zarraga o'zini daxldor deb biladi. Mana shu daxldorlik hissi tufayli jamiyatda sodir bo'lgan va bo'layotgan voqea-hodisotlar uning nazaridan chetda qolmaydi. Ayniqsa, tarix guvohligidagi xalqimizning qora kunlari, millatimiz darg'alarining qonli sahifalari hech bir shoir ijodida Muhammad Yusuf ijodida bo'lgani kabi teranlik kasb etmagan.

Muhammad Yusuf tom ma'noda milliy shoir, shu bilan birga, umumbashariy ezgu g'oyalarni tarannum etgani bilan baynalmilal ijodkor hamdir. Uning insoniyat boshiga ofat keltirguvchi yovuzliklar, balo-yu qazo va urush kulfatlarining fojiaiy oqibatlari, tinchlik va omonlikning qadr-qimmati va shukronasi tasvirlangan she'rlari ijodining salmoqli qismini tashkil etadi. Shu bois, boshqa ellar, o'lkalarda, qardoshlar va tildoshlar diyorida ham uning she'rlarini sevib o'qishadi. Uzoqqa bormaylik, yaqindagina Turkiyaning Anqara shahrida shoirimiz ijodiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro adabiy anjuman fikrimiz dalili bo'la oladi.

Gap shundaki, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY) va O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti jamoasi hamkorligida Muhammad Yusuf she'rlari va



dostonlari “Muhammed Yusuf secmeler” nomi bilan turk tiliga tarjima qilinib, yaxlit kitob holida nashr etildi. Shu munosabat bilan TURKSOY bosh qarorgohida o‘tgan taqdimot marosimida o‘zbek adabiyotining keng targ‘ib qilinayotgani, xususan, Muhammad Yusuf asarlarining turkey dunyodagi o‘rni haqida ham fikrlar bildirilgani xalqaro adabiy aloqalarimiz tobora rivojlanayotganining isboti bo‘ldi.

Ustoz Abdulla Oripov Muhammad Yusufni juda yaxshi ko‘rardi. Har xil do‘st nodo‘stlardan uni ehtiyotlar, asrab-avaylab yurardi. Xususan, “Betakror shoir” deb nomlangan maqolasida suyuqli shogirdi haqida bunday iliq va mehrlil so‘zlarni bitgan edi:

“Chinakam shoirning qalbida allaqanday sohir qush sayrab turadi, degan gapni ko‘p bora eshitgandik. O‘sha qush aynan Muhammadjonning, Muhammad Yusufning yuragida oshyon qurganiga men astoydil ishonganman. Uning ko‘zlari ham, chehrasi ham hamisha latif bir kuyni xonish qilganday edi... Muhammadjon yaxshi inson edi. Yaxshi insonlarga esa boshqalar hamisha talpinadilar. Odandan odam uzoqlashishini Xudoyim hech kimga ko‘rsatmasin”.

Xalq, haqiqat va nafosat o‘lmaydi va bularni ardoqlagan, kuylagan ulug‘lar ham mangudirlar. Ular hamisha avlodlar dili va tilida barhayot, shu minnatdor avlodlarning ezgu intilish va ishlarida madadkordir, deydilar. Sevimli shoirimiz Muhammad Yusuf ham hayoti davomida mana shunday ezgu maqsadni amalga oshirish baxtiga Musharraf bo‘ldi. Shoir hayotining mazmuni, betakror ijodiy faoliyatining asosiy ma‘nosi – Vatanga muhabbat degan oliy qadriyatdan iborat bo‘libgina qolmadi, hayot shodliklari, sevgi va sadoqat, ilm-ma‘rifat, xalqimizni azalazaldan ajoyib odatlaridan bo‘lgan go‘zallikni ardoqlash, onani sevisht, unga hurmat ko‘rsatish, tabiatdan bahra olish, eng asosiysi, inson shaxsiga bo‘lgan mehr-muhabbat mavzulari haqida ham kuylash otashnafas ijodkor she‘riyatida rangin jilolari bilan o‘z ifodasini topdi. Shu bilan birga, Muhammad Yusuf o‘z she‘rlarida kitobxonlariga bir necha ming yillik tariximizning shonli farzandlari haqida hikoya qildi.



Shuningdek, Muhammad Yusuf uchun Vatan – bu faqat geografik makon emas, balki tarix, ona til, ota-bobolar merosi, xalqning g‘ururi va kelajagi bilan bog‘liq muqaddas tushunchadir. Shoirning “Ulug‘imsan, Vatanim” she‘rida shunday misralar bor:

Ulug‘imsan, Vatanim,

Ko‘ksimda barhayotsan,

Tilim, dilim, yuragim —

O‘zingsan, Vatanim!

Bu misralarda shoirdagi Vatanga bo‘lgan beg‘ubor muhabbat, sadoqat va faxr kuchli lirizm bilan ifodalangan. Vatan uning nafaqat yuragida, balki tilida, ongida, butun borlig‘ida yashaydi.

Shoir o‘z asarlarida tashbeh, tazod, talmeh kabi badiiy san‘at vositalaridan ustalik bilan foydalangan. Bu esa uning she‘rlarini yanada jozibador va ta‘sirchan qiladi.

Tashbeh – o‘xshatish orqali ifoda kuchaytiriladi, tasvir chuqurlashadi. Muhammad Yusuf asarlarida o‘xshatishlar nafis, noan‘anaviy bo‘lib, ular boshqa ijodkorlarda deyarli uchramaydi. Yaratuvchining bizga O‘zbekiston kabi go‘zal yurt dan Vatan qilgani ne‘matlarning eng ulug‘idir. Shoirning Vatan haqidagi o‘xshatmalari shunchalik o‘ziga xoski, ular orqali O‘zbekiston tasviri yurakka yaqin, samimiy va beqiyos go‘zallikda namoyon bo‘ladi.

Muhammad Yusufning ijodida Vatan faqat sevgi emas, balki mas‘uliyat hamdir. Shoir o‘z she‘rlari orqali yoshlarni Vatanni sevishga, uni himoya qilishga, uning kelajagiga befarq bo‘lmaslikka chorlaydi. Muhammad Yusufning har bir she‘rida milliylik ruhi, xalqona donishmandlik, o‘zbek tilining go‘zalligi va boy ifoda imkoniyatlari, xalqimizning yuksak insoniy fazilatlari o‘z ifodasini topgan. Shu bilan birga, uning ijodida yoshlik zavqi, muhabbat va ishq tuyg‘ularining nafis ohanglari ham yuksak darajada aks etgan. O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov ta‘kidlaganidek,



Muhammad Yusuf xalq dardini ochiq aytgan, yurtga bo‘lgan muhabbatini o‘ziga xos, hech kimga o‘xshamagan misralarda ifodalagan she‘rlari orqali mashhurlikka erishgan. Uning kitoblarini odamlar do‘konlardan izlab topishga harakat qiladigan bo‘lishgan. Shoir hayoti esa uning she‘rlarida davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
3. Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2014.
4. Yusuf M. Biz baxtli bo‘lamiz. – Toshkent: Nihol, 2008.
5. Mirvaliyev S., Shokirov R. O‘zbek adiblari. - Toshkent, 2007. - B. 240. 10.
6. Boltaboyev. So‘z sehri. - Toshkent, 2006. - B. 98.
7. O.Sharofiddinova “Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida”. – Toshkent. “Adib”. 2014, 232b